



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/1 (10)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

SAIDOVA Galina Karimovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – psixologiya fanlari doktori, professor.

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BEKMURADOV Adham Sharipovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – pedagogika fanlari doktori, professor.

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAIDOV Akmal Xolmatovich – yuridik fanlari doktori, professor.

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – tibbiyot fanlari nomzodi.

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZIYAYEV Azamat Xamidovich – tarix fanlari doktori, professor.

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – psixologiya fanlari doktori.

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Сайдова Галина Каримовна – доктор экономических наук, профессор.

Шоумаров Гайрат Бахрамович – доктор психологических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

Бекмуратов Адхам Шарипович – доктор экономических наук, профессор.

Маъруфова Гулнора Махмудовна – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

Мусурманова Айниса Мусурмановна – доктор педагогических наук, профессор.

Рахимова Нигина Хайруллаевна – доктор экономических наук, профессор.

Сайдов Акmal Xolmatovich – доктор юридических наук, профессор.

Якубжанова Dilobar Batirovna – доктор педагогических наук, доцент.

Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna – кандидат медицинских наук.

Умирзаков Bakhodir Khamidovich – доктор экономических наук, профессор.

Зияев Azamat Khamidovich – доктор исторических наук, профессор.

Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli – доктор психологических наук.

Turakulov Ulugbek Holbutayevich – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Saidova Galina Karimovna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich – Doctor of Psychological sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

Bekmuradov Adkham Sharipovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Marufova Gulnora Makhmudovna – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Saidov Akmal Xolmatovich – Doctor of Juridical sciences, Professor.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – Candidate of Medical sciences.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ziyayev Azamat Khamidovich – Doctor of Historical sciences, Professor.

Abdusamatov Xasanboy Usmonjon ugli – Doctor of Psychological Sciences.

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

XALQARO TAHIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,

Rossiya va Markaziy Osiyon

o'rganish markazi dotsenti

Xalqaro tadqiqotlar maktabi,

Javoharlal Neru universiteti,

Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,

Chelyabinsk davlat madaniyat

instituti,

pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,

Texnologiya fakulteti boshlig'i,

London biznes va moliya maktabi,

Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,

Доцент Центра исследований

России и Центральной Азии,

Школа международных

исследований,

Университет Джавахарлала Неру,

Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина

Iosifovna,

Челябинский государственный

институт культуры,

доктор педагогических наук,

профессор

Доктор Прити Кесаван,

Руководитель Технологического

факультета

Лондонская школа бизнеса и

финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL

BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar

Assistant Professor

Centre for Russian and Central Asian

Studies

School of International Studies

Jawaharlal Nehru University

New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna

Chelyabinsk State Institute of Culture

Doctor of Pedagogical Sciences,

Professor

Dr. Preethi Kesavan

Head, School of Technology

London School of Business and

Finance, Singapore

MENEJMENT

| | |
|--|---|
| Abdullajanova D.S. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari | 4 |
|--|---|

SOTSILOGIYA

| | |
|--|----|
| Saipova M. Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar | 10 |
| Xonturayev B. Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari | 16 |
| Йулдошева У. Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане | 25 |
| Hashimova G.I. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari | 32 |

MAHALLA VA HAYOT

| | |
|--|----|
| Isamutdinov R.R. Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati | 37 |
|--|----|

OILA VA JAMIYAT

| | |
|--|----|
| Abdiraimova Sh.A. Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari..... | 44 |
| Rahimova M. Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi | 49 |
| Dovranova O.D. Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish..... | 53 |
| Mahkamov U.A. So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida..... | 58 |

PSIXOLOGIYA

| | |
|--|----|
| Рахимова И.И., Каримова Г.О. Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха | 64 |
| Абидова З.А. Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности | 69 |
| Ishonkulova N.I. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari | 75 |
| Raxmonova Z.N. Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari..... | 80 |

PEDAGOGIKA

| | |
|---|-----|
| Ortikov U.X. The socio-educational model in second language acquisition..... | 86 |
| Yulchiyeva D.X. Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat | 92 |
| Аблакулов Ш.Д. Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов | 98 |
| Mirhamidova M. Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari | 104 |
| Safoyeva R.J. Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari..... | 109 |
| Yakubov O.T. Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari | 114 |

TARIX

| | |
|--|-----|
| Sharipova N.A. XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi..... | 118 |
|--|-----|



Raxmonova Z.N.,

*Alfraganus universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini v.b.dotsenti,
e-mail: rahmonovazarifa6@gmail.com*

IJTIMOIY-INDIVIDUAL QADRIYATLAR VA EMOTSIONAL INTELLEKT XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Qadriyat yo‘nalishlari tizimi shaxs yo‘naltirilganligining mazmun jihatlarini belgilab beradi va uning atrofdagi olamga, boshqa insonlarga, uning o‘ziga bo‘lgan munosabatlari asosi, o‘z dunyoqarashi asosi va hayotiy faolligi motivatsiyasi o‘zagagini, hayotiy konsepsiysi hamda hayot falsafasining asoslarini tashkil etadi. Maqolada shu masalalar yuzasidan olib borilgan eksperimental tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: qadriyat, aksiologiya, emotsional intellekt, emotsional qadriyatlari, shaxsiy-individual qadriyatlari.

Аннотация. Система ценностных ориентаций определяет содержательные аспекты направленности личности и составляет основу ее отношения к окружающему миру, к другим людям, к самому себе, основу собственного мировоззрения и основу мотивации жизнедеятельности, основы жизненной концепции и философии жизни. В статье изложены результаты проведенного по этим вопросам экспериментального исследования.

Ключевые слова: ценность, аксиология, эмоциональный интеллект, эмоциональные ценности, личностно-индивидуальные ценности.

Annotation. The system of value orientations determines the meaningful aspects of a personality's orientation and forms the basis of its attitude to the world around it, to other people, to itself, the basis of its own worldview and the basis of motivation for life, the basis of the life concept and philosophy of life. The article presents the results of an experimental study conducted on these issues.

Keywords: value, axiology, emotional intelligence, emotional values, personal and individual values.

Kirish. Dunyoda yoshlarning ijtimoiy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonida qadriyatning xulq-atvorni ijtimoiy tartibga solishining psixologik determinanti, madaniyatlar o‘zgarishiga ta’siri, milliy madaniyat modelidagi o‘rni, emotsional intellektning o‘zaro ta’sir jarayonidagi ahamiyati yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, jamiyatda va tengdoshlari orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lmagan yoshlarda barqaror qadriyatlarni shakllantirish, shaxslararo munosabatlardagi muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘zga insonlarni

tushunish va qadrlash, o‘zini nazorat qilish va munosabatlardagi hissiy zo‘riqishlarni barataraf etishga o‘rgatishda qadriyatlari bilan emotsional intellekt o‘zaro aloqadorligining ijtimoiy-psixologik tadqiqotlariga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda keyingi yillarda yoshlarni o‘z-o‘zini anglashi, milliy g‘ururga ega bo‘lishi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o‘tmish ajodolar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o‘z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs sifatida tarbiyalashning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Oliy ta’limda

ma’naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo’shimcha sharoitlar yaratish davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Ushbu yo‘nalishlardagi kompleks vazifalar ijrosini ta’minalashda olyi ta’lim muassasasi talabalarining qadriyatlari bilan emotsiyonal intellekti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, ularning kasbiy kamolotida emotsiyonal intellekt imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha yangicha ilmiy yechimlarni topish imkoniyati tug‘ildi.

Maqсад ва уни асосларини оид. Maqolada ko‘zlangan maqsad qadriyatlar va emotsiyonal intellekt o‘zaro aloqadorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil etish orqali o‘quv jarayonidagi kouching, individual va guruhiy-hamkorlik mashqlarida emotsiyonal barqarorlik, hissiy sezgirlik, ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi va aniqligi omillarining singdirilishi talabalarda hamjihatlikda ishlash, atrof-olamdagisi narsa va hodisalarning nozik qirralarini his qilishiga olib kelishiga ko‘ra “o‘zaro hurmatlash”, “go‘zallikni anglash va undan zavqlanish”, “vaqtini behuda o‘tkazmaslik” qadriyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishdan iborat.

Qadriyatlar va emotsiyonal intellektga oid ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va olyi ta’lim muassasalarining mutaxassislarini tomonidan tadqiq qilinmoqda. Bunga Princeton university (AQSh), The SIMEER National Research Centre at the University of England (Angliya), Belfield pedagogical university (Germaniya), Edith Cowan University (Avstraliya), University of Social Psychology (Polsha), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Psixologiya institutini (Rossiya) misol qilish mumkin.

Tadqiq etilayotgan masala bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, olimlarning aksariyat tadqiqot ishlari qadriyatlar tizimi (V.M.Karimova, G.B.Shoumarov, E.G.G‘oziyev, B.R.Kadirov, Z.T.Nishanova, N.S.Safayev, Sh.X.Abdullayeva, Z.E.Abduraxmonova, O‘.B.Shamsiyev va boshqalar), qadriyatlar va emotsiyonal intellekt xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni

ko‘rsatadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi: narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy va emotsiyonal munosabatini ta’riflash; insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish; odamlar orasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni ta’riflash. “Qadriyat” tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarning turli ko‘rinish (iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy) larini ajratib ko‘rsatish, inson tabiatini, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab yetish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi.

Insonlarning o‘zaro ta’sir etish jarayoni bo‘lgan muloqotda ehtiyojlar asosida qadriyatlar tizimi shakllanib boradi. Shuni ham takidlash kerakki, muloqotning o‘zi ham qimmatli qadriyat hisoblanadi. Shu fikrlardan kelib chiqqan holda qadriyat tushunchasini keng ma’noda tushunib olishimiz kerak bo‘ladi. Qadriyat kategoriyasi faylasuflar, sotsiologlar va psixologlar tomonidan o‘rganilib kelmoqda. Qadriyatga berilgan har xil ta’riflar uni keng va chuqur ma’noga egaligidan xabar beradi.

Qadriyatshunoslik o‘tgan asrning o‘rtalarida shakllandi va “Akseologiya” atamasi bilan belgilandi. O‘tgan asr o‘rtalarining ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan bu tushuncha muomalaga kiritildi. Qadriyat – bu qadriyat tuyg‘usi, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar majmuasidir. Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari bilan borliq muammolarining tahlili uzoq tarixga ega. Kishilar qadim zamonlardanoq o‘zlarini o‘rab turgan olam, undagi narsa va hodisalar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga baho bergenlar, ularning qadri va qimmati to‘g‘risida fikr yuritganlar.

Qadriyatlar bu inson ehtiyojlarini qondirish va maqsadlariga yetish uchun zaruriy tarzda shakllangan muloqot va o‘zaro ta’sir jarayonidir. Insonlar o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaro ta’sir – muloqotga qadriyatlar ta’siri etib, ular insonda ma’lum bir ijobiy yoki salbiy psixologik holatlarni yuzaga keltiradi. Shu o‘rinda muloqot va o‘zaro ta’sir jarayonlari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Shuni ta’kidlash kerakki, muloqot jarayonini ko‘plab psixolog olimlar o‘rganganlar. Ular buni o‘zlarining maqsadlari asosida ko‘rib chiqqanlar. Muloqotni va

o‘zaro ta’sir jarayonini qadriyatlar asosida o‘rganish O‘zbekiston sharoitida hali amalga oshirilmagani bilan ahamiyatli. O‘.B.Shamsiyev “O‘zini baholash tizimi o‘z qadriyati haqidagi tasavvurni aks ettiruvchi umumiyl o‘zini baholashni ham, ularning muvofiqligi yoki nomuvofiqligi haqida gapirishi mumkin bo‘lgan xususiy (qisman) baholashni ham qamrab oladi”, – deb ta’kidlaydi¹. Shuning uchun bu masala dolzARB va zaruriy jarayon hisoblanadi. Haqiqatan ham, muloqot qilish, ma’lumot almashish, amaliy ishlarni bajarish, o‘zaro suhbat qilish kabi o‘zaro ta’sir inson uchun juda zaruriy hodisa hisoblanadi. O‘z milliy tilini ham, biror-bir chet tilini ham yaxshi egallashni bilingvism deb hisoblab, ayrim tadqiqotchilar ikki tillilik taraqqiyoti milliy tillarning rivojlanishiga aslo to‘siq bo‘lmasligini, aksincha, bilingvism hodisasi milliy tillarni yanada rivojlantirishning muhim manbalaridan biri bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar². Inson bunga o‘zida zaruriyat sezadi, ya’ni ehtiyoj sifatida uni qondirishga intiladi. Bunda muloqotga xos bo‘lgan juda zaruriy qoidalar shakllanadi. Bular esa qadriyatlar sifatida insonga, uning muloqotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Inson hayot faoliyati bu o‘zaro ta’sir va muloqot tarzida kechadi. Insoniyat uzoq rivojlanish davomida muloqot va o‘zaro ta’sirga mos bo‘lgan muloqot madaniyatini rivojlantirib kelmoqda. Insoniyat madaniyati bu qadriyatlar tizimi va taraqqiyoti, qadriyatlar esa ehtiyojlar natijasi sifatida shakllanib boradi. Qadriyatlar ehtiyojlar sifatida rivojlanishi bilan inson faoliyatining muhim ijtimoiy psixologik jarayoni bo‘lib qoladi va barcha faoliyat ko‘rinishlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu jumladan, insonning o‘zaro ta’siri va muloqotiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Boshqa odamlar bilan muloqot natijasida guruhiy qadriyatlar shakllanadi, ya’ni kelishish, qo‘llash va shu kabilar. Masalan, guruh qadriyatlarini, yutuqlarini mustahkamlashga qaratilgan xulq-atvor ijobiy holda mustahkamlanadi va o‘qitish asosi hisoblanadi.

Qadriyatlar tushunchasi psixolog olimlar tomonidan ham o‘rganilgan. Qadriyatlarni psixologik tushunish falsafiy tushunchalardan farqlanib, uni insonning psixik jarayonlariga

¹ Шамсиеў Ў.Б. Оилавий муносабатлар тизимида боланинг ўзини ўзи англаш жарабёни // Ўкув-услубий кўлланма.—Тошкент: “Мумтоз сўз” нашриёти, 2012.—Б. 10.

² Шамсиева М.Б. Билингвал болалар нуткининг психолингвистик тадқики. Автореф. дисс... фил. фан. фалс. док. PhD. — Андижон., 2022. — Б 24.

bog‘lagan holda tahlil qilinadi. Qadriyatlarga umumfalsafiy ta’riflarga suyangan holda psixologik ta’rif beriladi.

Qadriyatlar inson hayot faoliyatida uning xatti-harakatlarini va insonlarning amaliy ishlari ahamiyatini ko‘rsatib beradigan asosiy hodisa hisoblanadi. Shuning uchun psixologik izlanishlarda “qadriyat” tushunchasi inson bilan bog‘liq bo‘lgan holda o‘rganiladi va ahamiyatlilik, qadriyatlar oriyentatsiyasi va munosabatlardagi qadriyatlar, baho berish, ustankalar, me’yorlar, g‘oyalar, shaxsning yo‘nalganligi va shu kabilar bilan belgilanadi.

Qadriyat inson g‘oyasi sifatida subyektiv obrazlarda qabul qilinadi yoki madaniy-tarixiy me’yorlar sifatida tavsiya etiladi. Individual va ijtimoiy yo‘nalganlik sifatida u “arzigulik” xulq-atvor sifatida konkret hayotni belgilab beruvchi uslub hisoblanadi.

Shaxsda qadriyatlar to‘g‘risidagi ijobiy ustankani shakllantirish, subyektni ushbu hodisalarga ishontirish sof ijtimoiy-psixologik voqelik bo‘lib, unga oxirgi yirik psixolog olimlar katta e’tibor bermoqdalar. G‘arb mutaxassislarining asarlarida “qadriyat” atamasasi ko‘pincha “e’tiqod” atamasiga yaqin tushuncha sifatida talqin etiladi. Shunga ko‘ra, yuksak qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustankalar yoki e’tiqod shakllanishi jarayoni o‘ta murakkab bo‘lib, uning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi birlamchi omil – bu axborotlardir, deb yozadi amerikalik ijtimoiy psixolog R.Aronson. Demak, axborot bu o‘rinda kundalik muloqot jarayonida bir shaxsning yoki ijtimoiy guruhning boshqa bir shaxs yoki ijtimoiy guruhga uzatadigan har qanday ma’lumotlari, kognitiv birliklarining majmuyidir. Bizning izlanishimiz doirasida, bu talaba yoshlar muomalasida ro‘y beradigan o‘zaro ma’lumotlar almashinuvdir.

Shaxsning emotsional qadriyatları, asosan, his-tuyg‘ularga, kayfiyatlarga, kuchli hayajonlarga, stressga bog‘liq bo‘ladi, ko‘proq ruhiy hayajonlar oqibatida faoliyat yuritadigan davrda shaxslar qadrini belgilaydi. Ular kishini ikki xil: emotsional ta’sirdan keyin tezkorlik va shiddat bilan ijobiy harakat qilishga undashi, yoki salbiy – nihoyatda sust faoliyat yuritishga, tushkunlikka tushish, sarosimaga olib kelishi mumkin. Emotsional intellekt va qadriyatlarning o‘zaro aloqadorligi muayyan darajada kishilar faoliyati va xatti-

harakatini tartibga solib turishi mumkinligidan shaxs ma'naviyati uchun katta ahamiyatga molikdir.

His-tuyg'ular, kayfiyatga asoslangan emotsiyonal jihatlarni ustun qo'yadigan shaxslar ko'proq o'zlariga o'xshagan kishilar bilan muloqotda bo'lish, bunga imkon beradigan faoliyat turi yoki kasbni tanlashga harakat qiladilar, o'zlar ham gohida kuchli ehtirosga ega bo'ladilar, xatti-harakatlarida his-tuyg'ular ustunligi sezilib turadi³. "His-hayajon va tuyg'ularga asoslangan emotsiyonal jihatlar, holatlari qadriyat bo'lishi mumkimi?" degan masala turli bahslarga sabab bo'lishi mumkin.

Aslida, bu fikrni umuman shaxsiy qadriyat tizimini tashkil qiladagan tarkibiy qismlarning ko'plari xususida ham aytish mumkim. Ammo alohida insonni qadriyat sifatida tushunishi uchun, albatta, ilmiy nuqtayi nazardan ijtimoiy fanlar va psixologiyani qo'lga kiritgan zamonaviy yutuqlari, ayniqsa, ishlab chiqarish va boshqarishda emotsiyonal jihatlar g'oyat katta ahamiyat kasb etayotgani bu muammolarga butunlay boshqacha yondashishni talab qilmoqda. Shu bilan birga, ilg'or mamlakatlar tajribasi hayot va ishlab chiqarishda qator xizmatlar bilan birga psixologik xizmatini tashkil qilishni keng yo'lga qo'yishni talab qilayotgani, bu borada bizning mamlakatimizda ham chora-tadbirlar ko'rileyotgani masalani yanada dolzarblashtiradi⁴. Ruhiy tabobat

³ Усманова Э.З. Мотивационно-эмоциональная регуляция мышления в условиях интеллектуального конфликта. – Ташкент: Ўқитувчи, 1993. – С.78.

⁴ Фабри К.А. Научное наследие А.Н.Леонтьева и вопросы эволюции психики //А.Н.Леонтьев и современная психология/Под.ред. А.В.Запорожца и др. – М., 1983. – С.118-128.

bilan bog'liq muvaffaqiyatlarga erishishida his-tuyg'u va idrokning kuchi, kasalliklarning oldini olishda ulardan foydalanish samarasi bilan bog'liq ilmiy-amaliy masalalar, bu borada ijtimoiy psixologiyani qator fanlar bilan, shu jumladan, qadriyatshunoslik bilan ham hamkorlik qilishini talab qilmoqda. Holbuki, bu borada nafaqat ijtimoiy fanlar bilan, balki tabiiy fanlar bilan amaliy va ilmiy hamkorlik qilish emotsiyonal qadriyatlarning eng mo'jizakor qirralarini kashf qilish imkonini berishi ham mumkin.

Demak, inson tabiatning eng oliv mo'jizasi, tarixiy taraqqiyotning ijtimoiy mahsuli sifatida jamiyatdagi assosiya qadriyatdir. Har qanday jamiyatning ijtimoiy odilligi, unda umuminsoniylik mezonlariga amal qilinishi pirovardida inson qadrini qay darajada ekani, shaxsning individual qadriyatlarni namoyon qilishi uchun imkoniyatlar yaratilgani bilan bog'liq.

Insonning o'zi yakka ijtimoiy tizim bo'lgani kabi, uning shaxsiy-individual qadriyatları ham yakka aksiologik tizimdir. Bu tizim o'z ko'lamiga ko'ra umuminsoniy va milliy qadriyat tizimlariga nisbatan nihoyatda kichik alohidalikdir. Ammo har qanday kishi ana shu qadriyatları, ularni turli shaklda namoyon bo'lishi natijasida boshqalar va jamiyat uchun qadrlidir. Inson nafaqat qadriyatlar dunyosi, balki o'z qadri va uning namoyon bo'lishi uchun ham mas'uldir. Bu mas'ullik esa o'z navbatida, uning qadrini shakllantiradigan asosiy mezonlardan biri bo'lib hisoblanadi (1-jadval).

Mehribonlik qadriyati va emotsiyonal kreativlik uchun tayyorlik (yetarli bilim va tajribaga ega

1-jadval

Ijtimoiy qadriyatlar hamda emotsiyonal kreativlikning o'zaro aloqadorligi

| Ko'rsatkichlar | Tayyorlik | Yangilik | Samaradorlik | Autentiklik | Emotsional kreativlik |
|-----------------------|---------------|----------|--------------|----------------|-----------------------|
| Konformlik | 0,057 | 0,014 | 0,059 | 0,017 | 0,030 |
| An'analar, odatlar | 0,024 | -0,004 | 0,031 | -0,016 | 0,007 |
| Mehribonlik | 0,098* | 0,083 | 0,080 | -0,106* | 0,056 |
| Universallik | 0,063 | 0,056 | 0,031 | -0,019 | 0,039 |
| Mustaqil fikrlash | 0,010 | 0,004 | 0,033 | 0,012 | 0,012 |
| Rag'batlanish | 0,041 | 0,071 | 0,048 | 0,034 | 0,062 |
| Gedonizm | 0,005 | -0,040 | -0,062 | -0,051 | -0,044 |
| Yutuqlar | 0,037 | -0,002 | 0,045 | -0,001 | 0,019 |
| Kuch, hokimlik, obro' | 0,066 | 0,049 | 0,047 | 0,065 | 0,073 |
| Xavfsizlik | 0,060 | 0,032 | 0,064 | -0,011 | 0,037 |

Izoh: * - p<0,05

bo‘lish) xislati orasida musbat korrelyatsion munosabat mavjudligi aniqlandi ($r=0,098$; $p<0,05$). Mehribonlik shkalasi belgilab berilgan “jamiyatga bog‘liq” qadriyat turi hisoblanadi. Ya’ni boshqalarga nisbatan mehribonlikni yuksak darajada qadrlaydigan sinaluvchilarda emotsiyal kreativlik uchun tayyorlik darajasining yuqori bo‘lishi aniqlandi. Ya’ni sinaluvchilar qanchalik mehribonlikni qadrlasalar, shunchalik emotsiyal kreativlik uchun tayyorlik xislati yuqori darajada namoyon bo‘lar ekan. Ijtimoiy qadriyatlar nuqtayi nazaridan mehribonlik va tayyorlik ko‘rsatkichlarining bir-biriga bog‘liqligi bu ijtimoiy munosabatlar uchun muhimdir.

Mehribonlik va autentiklik ($r=-0,106$; $p<0,05$) shkalalari o‘rtasida esa manfiy korrelyatsion munosabat mavjudligi aniqlandi. Ya’ni mehribonlik shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlarning ortishi samimiylig va o‘zini tutishidagi tabiiylikning pasayishiga olib kelishi mumkin ekan. Universallik, mustaqil fikrlash, rag‘batlanish, gedonizm, yutuqlar, kuch, hokimlik, obro‘, xavfsizlik qadriyatları va emotsiyal kreativlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik qonuniyatları aniqlanmadı. Demak, ijtimoiy qadriyatlar aksariyat holatlarda shaxsning emotsiyal kreativlik darajasiga ta’sir ko‘rsatmaydi (2-jadval).

Sh.Shvarsning qadriyatlar so‘rovnomasi bo‘yicha individual qadriyatlar hamda Dj.Eyverillning “Emotsional kreativlik” so‘rovnomasi shkalalari orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari tahlil qilinganida korrelyatsion bog‘liqlik qonuniyatları deyarli aniqlanmadı. Biroq

universallik va autentiklik shkalasi o‘rtasida ishonch darajasidagi manfiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi ($r=-0,104$; $p<0,05$). Bu qadriyat boshqalarni tushunish, murosayi madora, barcha odamlar va tabiatning ezguligi uchun faoliyat ko‘rsatib, ularni himoya qilish xislatlarini ifoda etadi. Universallik qadriyatining autentiklik shkalalasi bilan teskari proporsional bog‘liqligini shunday izohlash mumkinki, umumbashariy, ya’ni insoniyat uchun umumiylig bo‘lgan qadriyatlarning shaxsda ustunlik qilishi uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitning o‘ziga xos jihatlaridan, milliy-etnik qadriyatlar, urf-odatlar va an’analardan yiroqlashishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yakuniy qism. Konformlik, an’analar, odatlar, mehribonlik, mustaqil fikrlash, rag‘batlanish, gedonizm, yutuqlar, kuch, hokimiyat, obro‘, xavfsizlik qadriyatlarining individual jihatlari emotsiyal kreativlik orasida bog‘liqlik qonuniyatları mavjud emas. Mazkur natijalar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, emotsiyal kreativlik va Shvarsning shaxs qadriyatları o‘rtasida ishonch darajasidagi bog‘liqliklar deyarli mavjud emas.

Umumiyl ravishda tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy va individual qadriyatlar bilan emotsiyal intellekt xususiyatlari o‘rtasida bir qator bog‘liqlik qonuniyatları mavjud va shaxsning emotsiyal intellekt darajasi ko‘p jihatdan uning qadriyatlarini belgilab beruvchi omil⁵ ekanligi haqidagi ilmiy farazimiz o‘z tasdig‘ini topgan.

⁵ Рахмонова З.Н. Қадриятлар ва эмоционал интеллект ўзаро алоқадорлигининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Автореф. дисс... психол. фан. фалс. док. PhD. Тошкент, 2022. – Б. 24.

2-jadval

Individual qadriyatlar hamda emotsiyal kreativlikning o‘zaro aloqadorligi

| Ko‘rsatkichlar | Tayyorlik | Yangilik | Samaradorlik | Autentiklik | Emotsional kreativlik |
|-----------------------|-----------|----------|--------------|----------------|-----------------------|
| Konformlik | 0,000 | 0,004 | 0,072 | -0,050 | 0,002 |
| An’analar, odatlar | -0,015 | -0,034 | 0,025 | -0,074 | -0,033 |
| Mehribonlik | 0,044 | 0,027 | 0,005 | -0,045 | 0,017 |
| Universallik | 0,057 | 0,038 | 0,037 | -0,104* | 0,022 |
| Mustaqil fikrlash | -0,024 | -0,022 | 0,001 | 0,002 | -0,018 |
| Rag‘batlanish | -0,021 | 0,008 | -0,023 | -0,012 | -0,011 |
| Gedonizm | -0,003 | -0,016 | 0,015 | -0,041 | -0,013 |
| Yutuqlar | -0,053 | -0,028 | -0,018 | -0,030 | -0,048 |
| Kuch, hokimlik, obro‘ | -0,020 | -0,018 | -0,018 | -0,012 | -0,019 |
| Xavfsizlik | 0,023 | -0,029 | 0,014 | -0,015 | -0,017 |

Izoh: * - $p<0,05$

Amaliy va nazariy kuzatuvlarimiz, tadqiqot natijalari va ular asosida shakllantirilgan umumiy xulosalar quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif etish imkonini bermoqda:

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda uning hududiy bo‘limmalariga qadriyatlar va emotsiyonal intellekt o‘zaro bog‘liqligi va ularning tarkibiy qismlarini tadqiq etishda qadriyatlar va emotsiyonal intellekt o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishning dolzarblii talabalar guruhi vakillarining qadriyatlar iyerarxiyasini, ularning emotsiyonal zakovati va madaniy kontekstini tadqiq etish muammosining nazariy va amaliy ahamiyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish tizimini rivojlantirish kerak.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning hududiy bo‘limlarida qadriyatlar va emotsiyonal intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlik, ularning emotsiyonal zakovati, madaniy xususiyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan kitoblar, adabiyotlarni ko‘paytirish va bu orqali o‘quvchilar dunyoqarashini oshirish yo‘llarini yaratish lozim.

3. O‘zbekiston Ma’naviyat va ma’rifat markazi va uning tarmoqlarida madaniy intellektual va emotsiyonal-irodaviy o‘ziga xoslik bilan tavsiflanigan emotsiyonal intellektning tarkibiy qismlari hamda individual darajadagi qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda talabalar guruhidagi ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash bilan bog‘liq targ‘ibot-tashviqot ishlarini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Рахмонова З.Н. Қадриялар ва эмоционал интеллект ўзаро алокадорлигининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Автореф. дисс... психол. фан. фалс. док. PhD. Тошкент, 2022. – Б. 24.
2. Усманова Э.З. Мотивационно-эмоциональная регуляция мышления в условиях интеллектуального конфликта. – Ташкент: Ўқитувчи, 1993. – С.100.
3. Фабри К.А. Научное наследие А.Н.Леонтьева и вопросы эволюции психики//А.Н.Леонтьев и современная психология/Под.ред. А.В.Запорожца и др. – М., 1983. – С.118-128.
4. Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения/ Х.Хекхаузен. –СПб.: Речь, 2011. – с. 240.
5. Шамсиев Ў.Б. Оилавий муносабатлар тизимида боланинг ўзини ўзи англаш жараёни // Ўкув-услубий кўлланма. – Тошкент: “Мумтоз сўз” нашриёти, 2012. – Б. 52.
6. Шамсиева М.Б. Билингвал болалар нуткининг психолингвистик тадқики. Автореф. дисс... фил. фан. фалс. док. PhD. Андижон., 2022 Б – 24

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE**

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia*

x a l q a r o i l m i y j u r n a l i

*международный научный журнал
international academic journal*

2024/1 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

Razzakova N., Sobirova E.,

Jabborov U.

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagи materiallardan foydalانilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.